

BIZNESDA AKTIVLAR HISOBINING NAZARIY ASOSLARI**Boltayev Abror Sayitmuradovich**Alfraganus University, Buxgalteriya hisobi va soliq
kafedrası mudiri, PhD, dotsent**Annotatsiya**

Mazkur maqolada biznesda aktivlar hisobining nazariy asoslari bayon qilingan. Xususan, buxgalteriya hisobi ob'ekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida "aktivlar" tushunchasiga mualliflik yondashuvi shakllantirilgan hamda o'rganilgan manbalarda berilgan ta'riflar va yondashuvlardan farqli jihatlarini asoslab berilgan. Shuningdek, biznes sub'ekti aktivlari uzoq muddatli va joriy aktivlar sifatida tasniflangan holda tavsiflab berilgan hamda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: biznes sub'ekti, aktivlar, uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, moddiy aktivlar, nomoddiy aktivlar, moliyaviy aktivlar, nomoliyaviy aktivlar, iqtisodiy naf, iqtisodiy resurs.

Аннотация

В данной статье описаны теоретические основы учета активов в бизнесе. В частности, формируется авторский подход к понятию «активы» как объекту учета и элементу финансовой отчетности и обосновываются его отличия от определений и подходов, приведенных в изучаемых источниках. Также, описаны активы хозяйствующего субъекта, классифицированные как долгосрочные и оборотные активы и сделаны выводы.

Ключевые слова: хозяйствующий субъект, активы, долгосрочные активы, оборотные активы, материальные активы, нематериальные активы, финансовые активы, нефинансовые активы, экономическая выгода, экономический ресурс.

Abstract

This article describes the theoretical foundations of asset accounting in business. In particular, the author's approach to the concept of "assets" as an object of accounting and an element of financial reporting is formed and its differences from the definitions and approaches given in the sources studied are substantiated. Also, the assets of a business entity, classified as long-term and current assets, are described and conclusions are drawn.

Key words: business entity, assets, long-term assets, current assets, tangible assets, intangible assets, financial assets, non-financial assets, economic benefit, economic resource.

KIRISH

Bozor munosabatlari sharoitida biznes subyektlari tomonidan biznes jarayonlarini amalga oshirishda aktivlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan, aktivlardan moliya-xo'jalik faoliyatida foydalanish natijasida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish jarayoni yuzaga keladi. Biznes jarayonlarida mavjud aktivlardan samarali foydalanish, kelgusida ularning ko'payishi va biznes subyekti iqtisodiy va moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Shu boisdan, buxgalteriya hisobi ob'ekti va

moliyaviy hisobot elementi sifatida aktiv o'zini nima, u qanday baholanadi, uning qanday turlari mavjud va buxgalteriya hisobida qay tarzda hisobga olinadi va moliyaviy hisobotda aks ettiriladi degan savollarga amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda berilgan qoidalarni to'g'ri talqin qilgan holda yondashilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, buxgalteriya hisobida hisob ob'ekti sifatida tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish uchun uning nazariy asoslari to'g'risida yetarli darajada bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish lozim. Shu sababli, mazkur maqolada buxgalteriya hisobi ob'ekti hisoblangan aktivlar hisobining nazariy jihatlariga to'xtalib o'tmoqchimiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asosga ko'ra "aktivlar — tashkilot nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir" [1]. Fikrimizcha, mazkur ta'rif aktivlarning iqtisodiy mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Chunki, berilgan ta'rifda keltirilgan kalit so'zlari bo'lgan "nazorat qilinadigan", "daromad olish" yoki "avvalgi faoliyat" yoxud "iqtisodiy resurs" tushunchalari izohlab berilmagan. Shuningdek, ta'rifda keltirilgan ayrim kalit so'zlar, izohlarda aralash holatda keltirilgan. Masalan, berilgan ta'rifdagi "kelgusida ulardan daromad olish" jumlasini izohlarda "kelgusidagi iqtisodiy foyda" yoki "keladigan iqtisodiy naf" jummalari bilan tavsiflangan.

Xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi"[2] ga muvofiq "Aktiv – oldingi hodisalar natijasida tashkilot tomonidan nazorat qilinadigan mavjud iqtisodiy resurs. Iqtisodiy resurs – bu iqtisodiy naflar yaratish potentsialiga ega bo'lgan huquq" deb ta'rif berilgan. Ushbu ta'rifning asosiy kalit so'zlari bo'lgan "iqtisodiy naflar yaratish potentsiali", "huquq" va "nazorat" jummalari atroflicha izohlab berilgan. Biroq, aktivlarni baholash masalasi har bir aktiv turi bo'yicha alohida tartibga soluvchi xalqaro standartlarda keltirib o'tilgan.

Albatta, buxgalteriya hisobi ob'ekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida aktivlarni tasniflash, uzoq muddatli va joriy aktivlarni hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar O.A.Volivok, V.V.Kulikova [4], T.V.Kosines, M.Xaytanova [5], Yu.I.Sigidov [6] hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlari R.D.Dusmuratov [7], K.B.Urazov [8], I.N.Ismanov [9], A.S.Boltaev [10], D.M.Mavlyanova [11] va boshqalarning ilmiy va o'quv-uslubiy asarlarida o'z aksini topgan. Ya'ni, ular tomonidan asosan uzoq muddatli va joriy aktivlar tarkibiga kiruvchi aktivlarni tan olish, baholash, hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari milliy qonunchilik bazasi va xalqaro standartlar talablari hamda ularda belgilangan qoidalarga muvofiq tasniflangan holda tavsiflab berilgan. Biroq, buxgalteriya hisobi ob'ekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida aktivlarning nazariy asoslari yetarli darajada o'rganilmagan. Masalan, O.A.Volivok va V.V.Kulikovalar [4] korxona mulki (aktivlari)ni uzoq muddatli va joriy aktivlarga ajratgan holda asosan korxonaning asosiy vositalarga nisbatan huquqlari, asosiy vositalarning turlari bo'yicha tasniflanishi va ularning tavsifini, shu bilan birga asosiy vositalarning amortizatsiya guruhlari bo'yicha tasnifini bo'yicha o'z yondashuvlarini keltirib o'tishgan.

Iqtisodchi olim I.N.Ismanov “Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan asosiy kapital avvalo iqtisodiy kategoriya bo‘lib, tayyorlash, ishlab chiqarish va sotish hamda nishlab chiqarish sohasida ishtirok etayotgan va kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan aktivlardir. Asosiy va aylanma kapitalga ajratish mezonini negizida ularning ma’lum bir qiymatga bog‘liqligi emas, balki iqtisodiy naf keltira olishi yotishi kerak” [9] deb ta’kidlagan holda aktivlarni uzoq muddatli va joriy aktivlar guruhlariga ajratgan holda uzoq muddatli aktivlarni tasniflagan holda tavsiflab beradi.

Iqtisodchi olim A.S.Boltaev [10] esa, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq biznes jarayonlarida biologik aktivlarning hisob ob’ekti sifatida tasniflagan holda tavsiflab bergan xolos.

METODOLOGIYA

Biznesda aktivlar hisobining nazariy asoslari tadqiq qilishda ilmiy-tadqiqot metodologiyasidagi mavjud nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to‘plash va muammoni qo‘yish kabi nazariy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish va kuzatish kabi empirik tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Bu esa, maqola mavzusiga doir o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining metodologik asosini tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umuman olganda, aktivlar tushunchasiga amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda berilgan ta’riflar, tadqiq qilib o‘rganilgan iqtisodiy manbalarda keltirilgan iqtisodchi olimlarning yondashuvlarini e’tirof etgan holda fikrimizcha: “Aktivlar – bu o‘tgan hodisalar natijasida biznes subyekti tomonidan olinadigan yoki nazorat qilinadigan, u bilan bog‘liq kelgusi iqtisodiy naf olinishi ehtimoli mavjud bo‘lgan iqtisodiy resurs”.

Mazkur yondashuvni quyidagicha izohlaymiz:

birinchidan, yuqorida aktivlar tushunchasiga berilgan yondashuvimizda “o‘tgan hodisalar natijasida” jumlasini keltirilgan. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, biznes subyektlariga qarashli aktivlar o‘tgan hodisalar natijasi hisoblanadi. Xususan, biznes subyektlarining aktivlarga egalik huquqi odatda xarid qilish yoxud ishlab chiqarish natijasida paydo bo‘ladi. Ya’ni, kelgusida kutiladigan hodisalar o‘zidan o‘zi aktivlarning paydo bo‘lishiga olib kelmaydi.

ikkinchidan, “olinadigan yoki nazorat qilinadigan” jumlasini quyidagicha izohlash mumkin. Agarda biznes subyekti biror narsa bilan bog‘liq bo‘lgan kelgusi iqtisodiy naflarni nazorat qilsa yoki o‘tgan hodisalar natijasida olinadigan bo‘lsa, aktiv sifatida qabul qilinadi. Masalan, biznes subyekti xaridorga ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishi natijasida olinishi lozim bo‘lgan debitorlik qarzi aktiv hisoblanadi.


uchinchidan, “kelgusi iqtisodiy naf” jumlasini. Har qanday narsa tashkilotga kelgusida iqtisodiy naf keltirsagina aktiv sifatida tan olinadi. Masalan, biznes subyekti hozir kunda eskirgan, ishlab chiqarish quvvati past bo‘lgan uskuna egalik qiladi. Aytaylik, ushbu uskuna 10 yil oldin xarid qilish bahosi 100 000,0 ming so‘mga teng bo‘lgan. Hozirgi kunda ishlab chiqarish quvvati yuqori bo‘lgan yangi avlodlari yaratilgan bo‘lib, biznes subyektida mavjud 10 yil oldin aktiv bo‘lgan uskuna hozirda

kelgusi iqtisodiy naf keltirmasligi sababli, uni aktiv sifatida tan olib bo'lmaydi.

to'rtinchidan, "ehtimoli mavjud bo'lgan" jumlasini. Ma'lumki, biznes jarayonida ko'plab noaniqliklar kuzatiladi. Masalan, har doim ham biznes subyekti olinishi kerak bo'lgan qarzdorlikni undira olmaydi. Shu sababli, olinishi kerak bo'lgan debitorlik qarzini undirilishi mumkin bo'lgan summada tan olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

beshinchidan, "iqtisodiy resurs" jumlasini. Mazkur jumlagacha "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi"da "Iqtisodiy resurs – bu iqtisodiy naflar yaratish potensialiga ega bo'lgan huquq" deb berilgan ta'rif yetarli deb uylaymiz.

Umuman olganda, biznes subyektiga tegishli aktivlar holati, tarkibi va tuzilishi to'g'risidagi axborotlar "Buxgalteriya balansi"da uzoq muddatli va joriy aktivlarga tasniflangan holda beriladi (1-rasm). Axborotdan foydalanuvchi mazkur ma'lumotlardan foydalangan holda biznes subyekting moliyaviy holatiga baho beradi.



1-rasm. Biznes subyekti aktivlarning tasniflanishi¹

Biznes subyektiga tegishli aktivlar muddat va qiymat mezonlariga muvofiq uzoq muddatli va joriy aktivlar guruhlariga ajratilgan holda tasniflanadi. Ya'ni, bir yildan ortiq moliya-xo'jalik faoliyatida foydalaniladigan, qiymati hisob siyosatida belgilangan qiymatdan yuqori bo'lgan aktivlar odatda uzoq muddatli aktivlar sifatida tan olinadi. Yuqoridagi mezonlarga javob bermagan aktivlar joriy aktivlar sifatida tasniflanadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, 4-son "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) [3]da xizmat muddati hamda qiymatidan qat'i nazar joriy aktivlar sifatida tan olinadigan inventar va xo'jalik jihozlari ro'yxati ko'rsatib o'tilgan. Shu bois, ular joriy aktivlar sifatida tan olinadi va moliyaviy

¹ Muallif ishlanmasi

hisobotda aks ettiriladi.

Shuningdek, biznes subyektiga tegishli aktivlarni moddiy ashyoviy shakliga ko'ra moddiy va nomoddiy aktivlarga ajratgan holda tasniflash mumkin. Shu bilan birga, xalqaro hisob ta'limoti va amaliyotida buxgalteriya hisobi ob'ekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida aktivlar moliyaviy va nomoliyaviy aktivlarga ajratilgan holda tasniflanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, buxgalteriya hisobi ob'ekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida aktivlar va ularning tasniflanishi bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

birinchidan, "Aktivlar" tushunchasiga amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda berilgan ta'riflar va iqtisodchi olimlarning yondashuvlari tadqiq qilingan holda mualliflik yondashuvi shakllantirildi;

ikkinchidan, "Aktivlar" tushunchasiga taklif etilayotgan mualliflik yondashuvining o'rganilgan manbalarda berilgan ta'riflar va yondashuvlardan farqli jihatlari asoslab berildi. Bu esa, aktivlar tushunchasining mazmun mohiyatini to'liq tushunish va to'g'ri talqin qilish ko'nikmasini oshiradi;

uchinchidan, tashkilotga tegishli aktivlar muddat va qiymat mezonlariga muvofiq uzoq muddatli va joriy aktivlarga ajratilgan holda tasniflandi va tavsiflab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 131-son buyrug'iga 1-ILOVA. "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun KONSEPTUAL ASOS". <https://lex.uz/docs/7015916>;

2. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrdagi 61-son buyrug'iga 1-ILOVA "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi". <https://lex.uz/docs/6312360>;

3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (4-sonli BHMS) «Tovar-moddiy zaxiralar» <https://lex.uz/docs/4890446>;

4. Воликов О.А., Куликова В.В. Учет активов в деятельности предприятия. Economy and Business: Theory and Practice, vol. 12-1 (94), 2022 65-70 с.;

5. Косинец Т. В. Бухгалтерский учет активов организации и источников их формирования [Электронный ресурс]: учеб. пособие / Т. В. Косинец, М. Хайтанова; Владим. гос. ун-т им. А.Г. и Н.Г.Столетовых. – Владимир: Изд-во ВлГУ, 2021. – 450 с.;

6. Сигидов Ю.И. Оценка активов и обязательств, стоимость которых выражена в иностранной валюте, в соответствии с российскими и международными стандартами учета. Международный бухгалтерский учет, 10 (256) – 2013. 1-10 с.;

7. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. –T.: "Iqtisod-moliya", 2020, — 495 b.;

8. Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – 558 b.;

9. Ismanov I.N. Aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olishning ayrim munozarali jihatlari. IQTISOD VA MOLIIYA 2016, 2., 39-45 b.;

10. Boltaev A. BIZNES JARAYONLARIDA BIOLOGIK AKTIVLARNING HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLANISHI VA TAVSIFI //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2023. – T. 24. – №. 5. – S. 387-394.;

11. Mavlyanova D.M. Joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditini uslubiy jihatlari takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020-y. – 20 b.;